

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARIDA MEDIA SAVODXONLIGINING AHAMIYATI

Xolliyev Abdulhamid Urmanovich

JXU magistranti

ANNOTATSIYA

Har sohada bo‘lgani kabi, milliy gvardiya sohasida ham media savodxonlik, madaniyat, zukkolik eng dolzarb omillar hisoblanadi. Ushbu sohada milliy mediada savodxonlik, madaniyat, bilimdonlik ahamiyati muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: mediata’lim, mediamadaniyat, ijtimoiy sayt, mediasavodxonlik, ommaviy axborot, mediamahsulot, arxiv.

АННОТАЦИЯ

Как и в каждой области, медиа -грамотность, культура и передовые компании являются наиболее современными факторами в области Национальной гвардии. Важность грамотности, культуры, знаний в национальных СМИ в этой области будет обсуждаться.

Ключевые слова: медиа -сессия, медиа, социальные сайты, медиа -сервисы, медиа, информация о медиа, архивы.

KIRISH

Mamlakatimizda yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyat media muhitining keskin sifat va miqdor jihatidan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu hodisalar telekommunikatsiya vositalari hamda axborot texnologiyalari tizimlarining jadal rivojlanishi sharoitida yuz berib, bu jamiyatdagi ijtimoiy boshqaruva sohasida axborot-telekommunikatsiya jarayonlari va turli darajadagi axborot omillari yig‘indisini tayanch nuqtaga chiqarmoqda. Bunday vaziyatda milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida mediamadaniyatni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Ularda mediamakonga moslashish, mediasavodxonlikni oshirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Jamoat xavfsizligini ta’minalash yo‘nalishida mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minalashning yaxlit tizimi shakllantirildi hamda davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta’minalash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolarning xavfsizligi ta’minalangan, tartib bor jamiyatdagina barqaror taraqqiyot va aholi farovonligini yuksaltirish imkoniyati vujudga keladi.

Dunyo mamlakatlarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga doir mukammal qonunchilikni yaratish, uning so'zsiz bajarilishini ta'minlash, aholi va ular bilan bevosita faoliyat yurituvchi vakolatlari organlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarning, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilash muhim yo'naliishlar hisoblanadi. Bu jarayonda davlat organlari va tashkilotlarning aniq vakolatlari, funksiyalarini belgilab berish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda Milliy gvardiya organlari vakolatlarini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, huquqiy ekspertizadan o'tkazish, qabul qilish jarayonidan boshlab, to ularning ijrosini ta'minlashgacha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati vujudga keldi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining eng muhim yo'naliishlaridan biri etib belgilandi. Qurolli Kuchlar tizimiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning vazifalari, tashkiliy va tarkibiy tuzilishi yangilanib sohadagi islohotlar doirasida, 2017 yilda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bu maxsus harbiy bo'linma faoliyati jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, aholini turli terrorchilik xatarlaridan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga qaratilgan. Qisqa vaqt ichida Milliy gvardiya mamlakat xavfsizligini ta'minlash tizimidagi muhim bo'g'inga aylandi va Qurolli Kuchlar tarkibiy qismlari bilan yaqin aloqa o'rnatdi" [1].

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatini huquqiy ta'minlash borasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Vatanimiz mustaqilligi va suverenitetini saqlash eng ustvor vazifa ekanligini haqidagi ustvor prinsiplar asosida "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktirinasiga" ko'ra O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tegishli boshqaruv organlari, qo'shinlari, harbiy tuzilmalari va muassasalari- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiritildi [2].

Globallashuv sharoitida media ta'sirning ko'lami va tezligi oshib, ommaviy axborot vositalari, Internet va undagi ijtimoiy saytlar, kino sanoati orqali katta miqdor va miqyosda axborotlar uzatilmoqda. Zamonaviy dunyoni ommaviy axborot vositalari — mediasiz tasavvur etish qiyin. Media - bosma nashr, matbuot,

televidenie, kino, radio, ovoz yozish va internet tizimini o‘z ichiga oladi. Oxirgi yarim asrda inson hayotida media asosiy o‘rinni tuta boshladi. Sotsiologlarning ta’kidlashicha, o‘rtacha hisobda hozirgi zamonda —madaniylashgan inson 75 yil yashaydi, mana shu umrning taxminan 50 yilini esa uxlamasdan faol tarzda o‘tkazadi. Va rosa to‘qqiz yilini televizor ko‘rishga sarflayd [3]. Demak, yoshlarda media materiallaridan foydalanish dunyoqarashini oshirish bilan birga mediamahsulotni uzatish imkoniyatiga ega bo‘lgan har bir insonda mediamatn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Bugungi kunda bu vazifa bilan mediata’lim shug‘ullanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shu bilan birga boshqa manbalarda ham media istilohiga shu tarzdagi tavsiflar berilganini ko‘ramiz. «Media - ommaviy axborot vositalari ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli va serqirra funksiyalarini amalga oshiruvchi kommunikatsiya vositasidir». Aksariyat hollarda mutaxassislar media atamasi o‘zagida aynan ushbu tavsifni ko‘radi. Shunga qaramasdan, mazkur istilohning tor mazmuni ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar mazkur atama mazmunida alohida axborot muhiti sifatida aynan OAVni, boshqalari esa – aniq axborot tashuvchini nazarda tutadi[5].

Fikrimizcha, media ta’sirida oladigan ma’lumotni qayta ishlay olish, mantiqiy va analitik tahlil qilib ko‘rish, uning yashirin aks ta’sirini anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish sifatida mediamadaniyat nafaqat jurnalistlar, OAV xodimlari balki, milliy gvardiya sohasi vakillariga ham juda kerakli sifat hisoblanadi. Chunki ular ham xorijiy axborotni o‘zlashtirish, uni tahlil etish bilan ham shug‘ullanadi. Shu bois milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida ham mediasavodxonlikni oshirish, mediata’lim orqali medianing salbiy ta’sirlarini ilg‘ay olish ko‘nikmalarini shakllantirish, bu orqali soha vakillarini ham g‘oyaviy aldanishdan saqlash iqtidoriga ega bo‘ladi. Mediamadaniyatni shakllantirish zaruratini tadqiq etishdan avval axborot savodxonligi, axborot madaniyati, mediata’lim va mediamadaniyat tushunchalarining mazmun mohiyati, lug‘atlarda tariflanishini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Axborot savodxonligi – axborotni tanlash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko‘nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Axborot savodxonligi axborotga egalik, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanishning muhimligini e’tirof etadi.

Media savodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo‘yicha ko‘nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Demak, media savodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarini amalga oshirish sifatini

baholash va o‘z-o‘zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg‘u beradi. Media savodxonlik ham, axborot savodxonligi ham Milliy gvardiyada media va axborot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat’iy nazar o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq.

Marcus Leaning (Professor of Digital Media Education at University of Winchester) qarashlari:

– Media axborot vositalarining salohiyatiga proteksionistik yondashuvning ortishi, aholining ayrim qatlamlari, xususan, bolalar va yoshlar media axborot vositalari ob‘ektiga aylanib qolishiga olib kelmoqda. Media makon yangi shakllari va ular yordam beradigan aloqa ta’siridan ko‘proq ongi shuuri yetilmagan yoshlar qatlami xavf ostida ekanligi sezilmoqda. Xavotirli jihat shuki, bunday yangi texnologiyalar taqdim etadigan o‘zaro ta’sir va ishtirok etishning yangi imkoniyatlari kun sayin oshib bormoqda. Yuqoridagi fikr dunyo bilan turli xil sezgilar orqali aloqa qilishimizni tan olish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bu yerda tashvish shundaki, media axborotdan foydalanuvchi bilan o‘zaro munosabatlarning turli usullari yangi kompetensiya shakllarini talab qilayotganligi, “multimodal” savodxonlikni oshirishga zaruratni keltirib chiqarmoqda.

Marcus Leaning o‘zini “Media va axborot savodxonligi” nomli asarida keltirib o‘tganidek, bugungi media bozor savdosiga chiqarilayotgan aksariyat mahsulotlar, o‘zining saviyasi pastligi bilan ham “xaridorgir” bo‘lib qolmoqda. Chunki arzon va ommabop shaklda ishlab chiqilayotgan “media tovarlar” asosan yoshlar auditoriyasiga mo‘ljallangan bo‘lib, yoshlar qatlami orqali “dunyo ma’naviy muhitiga” ta’sir etmoqda.

– Sizga turli xil rejimlar orqali ishtirok etishni taklif qiladigan media axborot vositalarining yangi shakllaridan: vizual, audio, haptik (ba’zi o‘yin konsollarida mavjud bo‘lgan harakatga asoslangan o‘zaro ta’sir), virtual haqiqat va reallik mezonlari orqali ko‘plab semiotik ta’sir mexanizmlaridan foydalangan holda maqsadga erishmoqda.

Munosabat: darhaqiqat bugungi media axborot ta’siri onlayn, oflays, mexanik, vizual, audio, haptik va hok. “Yacheykalar” vositasida katta kuchga ega tizimga aylanib ulgurdi. Masalani muammoli jihat shundaki, jamiyatda media axborot “qo‘llari”, “zombilari”, “media axborot tashuvchi manqurtlar” auditoriyasi ham gorizontal, ham vertikal diogonal bo‘ylab oshib bormoqda.

– Media axborot tarqatuvchi texnologiya doimiy ravishda takomillashib boradi, rivojlanish tezligi, ta’sir doirasi va kompyuter texnologiyalarining tez o‘zlashtirilishi

uni boshqa texnologik yangiliklardan ajratib turadi. Bundan tashqari, bu o‘zgarish keng seziladi, ya’ni bu zamonaviy jamiyatning refleksliligidan dalolat beradiki, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va yangi texnologiyalarning jamoatchilik fikriga ta’siri va umuman jamiyat ijtimoiy hayotiga ta’siri sezilib turadi. Shuning uchun ham jamiyatda barqaror jamoatchilik fikri shakllanishiga erishish uchun “media savodxonlik”, “texnologik savodxonlik”ni oshirib borish talab etiladi [4]. Chunki, media axborotni akademik va strategik tushunish orqali “shaxs media savodxonligi” ko‘nikmasini rivojlantirish yoki media ta’limga asoslangan yondashuvni qaror toptirish mumkin.

Munosabat: “media savodxonlik”, “texnologik savodxonlik” Marcus keltirib o‘tganidek, nafaqat bugungi jamiyat taraqqiyotiga ta’sir etadi, balki keyingi taraqqiyot bosqichlariga ham o‘z ta’sir kuchini ko‘rsatadi. Xususan, “media ta’lim”ga e’tibor berish asnosida, birinchidan, aksariyat hollarda “media xuruj qurboni” bo‘layotgan yoshlar qatlami orasida pozitiv turmush-tarzini qaror toptirish mumkin. Ikkinchidan, jamiyatda, ayniqsa, shahar va qishloq aholisi o‘rtasidagi tengsizlik barqarorlashuviga erishish mumkin. Qolaversa, bugungi globallashuv, axborot oqimining intensivlashuvi ta’siridan chiqish uchun, avvalo, sog‘lom fikrlaydigan, o‘z pozitsiyasida qat’iy turgan holda jamiyat bilan hamnafas yashaydigan qatlamga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi kuzatilmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqoridagi mulohazalar asosida e`tirof etish lozimki, mediamadaniyat — turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi. Mediamadaniyatga media savodxonlik bilangina erishish mumkin. Milliy gvardiya o‘z media himoyasiga ega bo`lmog`i lozim. Ular media mahsulotlarni o‘z «ma’naviy filtr»i (mafkuraviy immuniteti) orqali ko‘ra olishadi, tahlil qilishadi. Mediamatnlardagi targ‘ibot-tashviqotni, biryoqlamalikni va buning sabablarini, ma’lumot tarqatuvchining niyatlarini ko‘rib turishadi. Bunday mediamadaniyat mediamahsulotlarga tanqidiy yondashuvni belgilab beradi, aldanishlardan asraydi. Bugungi innovatsion zamonda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini media savodxoniksiz tasavvur qilish imkonsiz.

REFERENCES

1. Qurolli Kuchlarimiz-mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir/Prezident Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 10 yanvar kuni Xavfsizlik Kengashi majlisidagi nutqi. Halq so‘zi. 2018 yil 11 yanvar.

2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida. qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018 y., 03/18/458/0537-son.
3. Xusanboyevna, A. S. (2020, June). LINGUO-PRAGMATIC FEATURES OF SPEECH ACTS “EXPRESSION OF REFUSAL” IN RUSSIAN ENGLISH AND UZBEK. In *Archive of Conferences* (Vol. 2, No. 2, pp. 37-39).
4. Xusanboyevna, A. S. (2020, June). ROLE OF THE THEORY OF SPEECH ACTS IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF LINGUISTIC PRAGMATICS. In *Archive of Conferences* (Vol. 2, No. 2, pp. 43-45).
5. Азимова, Сайёра Хусанбоевна. "НУТҚ АКТЛАРИ ВА КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯ:“РАД ЖАВОБИНИ БИЛДИРУВЧИ” ИЛЛОКАЦИОН ҲАРАКАТНИ ПРАГМАТИК ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.5 (2020).
6. Jurayev, I. M. OLD VIEWS OF FAMILY AND SOCIAL RELATIONS.
7. Джураев, И. М. Ахмадиев Нуриддин Мухитдинович аспирант Ферганский государственный университет Узбекистан г. Фергана, ул. Мурабийлар, 19.
8. Soxibovna, M. G. THE ROLE OF LINGUVOCULARY IN THE STUDY OF NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF SPEECH UNITS.
9. Yuzboy ogli, R. A. (2022, April). ANGLIYA ELCHISI ALEKSANDR BYORNSNING BUXOROGA SAYOHATI TAFSIOTLARI. In *E Conference Zone* (pp. 176-177).
10. Yuzboy o‘g‘li, R. A. (2022). ANTONY JENKINSON’S VISIT TO THE KHANATE OF BUKHARA AND THE LEADING ROLE OF THE KHANATE OF BUKHARA IN TRADE RELATIONS BETWEEN INDIA AND RUSSIA. *PEDAGOGS jurnali*, 19(1), 174-177.
11. Aliyeva, N. (2021). Similarities And Distinctive Features Of Uzbek, Russian And English Phrases. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 315-321.
12. Aliyeva, N. (2021). СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕМ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 3(8).
13. Bazarova, D. (2022). VARIABILITY OF PHRASEOLOGICAL UNITS. *Science and innovation*, 1(B7), 483-486.
14. Kakharov, K., & Azizov, Y. (2022). Mnemonics Techniques for Teaching English Language. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 385-387.

-
15. Кахаров, Қ., & Абдусаломова, Г. (2022). ЧЕТ ТИЛИ ЎРГАНИШДА АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ РОЛИ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 152-155.
 16. Sh, K., & Akramova, F. (2022). Unnatives Speak as Innatives. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(12), 116-120.
 17. Iminovna, M. A. (2021). LESSINGNING HAYOTI VA IJODI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(9), 278-281.
 18. Маматова, А. И. (2021). Роль аутентичных материалов на уроках немецкого языка как иностранный. *Science and Education*, 2(6), 614-618.
 19. Iminovna, M. A. (2022). Gotthold Ephraim Lessing's Drammars are Atractive with Literary Devices. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(3), 53-60.
 20. Iminovna, M. A. (2022). THE WORKS OF GOTTHOLD EPHRAIM LESSING PLAYS AN IMPORTANT ROLE IN THE STUDY OF THE ESSENCE OF HUMANITY. *World Bulletin of Social Sciences*, 9, 112-115.